

**VILYAM SHEKSPIR ASARINING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA
TARJIMASI JOZIBASI VA TARJIMA MUAMMOLARI
(Vilyam Shekspirning "Romeo va Juletta" tragediyasining
Maqsud Shayxzoda tarjimasini misolida)**

Saidmuradova Soxiba Jalmuradovna

TerDPI o'qituvchisi, f.f.f.d (Tel: 998 99 424 81 66)

Normatova Feruza Shavkatovna

*TerDPI talabasi (Tel: 998883517788, email:
feruza.1088@umail.uz)*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Vilyam Shekspirning "Romeo va Juletta" tragediyasining Maqsud Shayxzoda tarjimasidagi jozibasi va tarjimadagi muammolar haqida so'z yuritilgan. Tarjima - millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi. Asliyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi. Badiiy tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi. Til badiiy asarda estetik hodisa, san'at faktiga aylanadi. Adabiy asar tili alohida „badiiy voqelik“ unsuridir. Tarjimada ana shu obrazli ifodaviy tildagi badiiy ma'noni boshqa tilning obrazli ifodaviy zaminiga o'tkazish, obrazni obraz bilan qayta ifodalash jarayoni yuz beradi. Tarjimon ona tilining rivojlanish darajasi, tarjimachilik an'analari, tajribalariga suyanadi, turli xil tafovutlarning mavjudligini hisobga oladi. Tarjimonning ijodiy qobiliyati va bilimi uning imkoniyatlarini kengaytirishi, hozirgi davrda har bir taraqqiy etgan xalq jahondagi yuzlab xalqlar tilidan o'z ona tiliga ilmfan va madaniyatning o'nlab sohalariga oid materiallarni tarjima qilishi uqtiriladi.

Kalit so'zlar: tarjima, badiiy voqelik, badiiy adabiyot, badiiy asar, tarjimon, hikoya, iste'dod, badiiy did.

**THE ATTRACTS AND PROBLEMS OF TRANSLATION OF WILLIAM
SHAKESPEARE FROM UZBEK TO ENGLISH (In the example of the translation
of William Shakespeare's tragedy "Romeo and Juliet" by Maqsud Sheikhzade)**

ABSTRACT

Translation is a type of literary work that consists in re-creating a text in one language in another language. Translation is the most important form of international communication. Depending on the nature of the original and restored text, it is divided into artistic translation, scientific translation and other types. The main feature of

artistic translation comes from the artistic function of language. Language becomes an aesthetic phenomenon, a fact of art in a work of art. The language of a literary work is a separate element of "artistic reality". In translation, the process of transferring the artistic meaning of this figurative expressive language to the figurative expressive ground of another language, re-expressing the image with the image occurs. The translator relies on the level of development of the mother tongue, translation traditions, experiences, takes into account the existence of differences. The creative ability and knowledge of the translator expands his capabilities. Nowadays, every developed nation translates materials related to dozens of fields of science and culture (lyrical poems, news, technology literature, etc.) from the languages of hundreds of nations in the world into their native language. .

This article talks about Maqsood Sheikhzadeh's translation of William Shakespeare's tragedy Romeo and Juliet talks about the appeal and problems of translation.

Keywords: Translation, artistic reality, literature, artistic work, translator, story, talent, artistic taste.

KIRISH

Tarjimon avval manba tili tizimi vazifasini aniqlab olib, keyin aynan o'sha vazi fani bajaradigan tarjima tili tizimini topishi kerak. Badiiy parchani tarjima tilida qaytadan namoyon qilishda ilhom, iste'dod va ijodkorlikka o'xshash inson faqatgina qalbi bilan his qiladigan mavhum unsurlarning vazifasi beqiyosdir. Badiiy tarjima aynan ana shu jihati bilan tarjimaning boshqa turlaridan o'zaro farqlanadi. badiiy tarjimada asar muallifining ichki kechinmalari va ruhiyati bo'yoqdor so'zlar bilan ijodiy yondashgan holda o'quvchiga yetkazib berishdir.

Vilyam Shekspirning "Romeo va Julyetta" tragediyasining Maqsud Shayxzoda tarjimasida lirik shoir ingliz so'zlaridan ayrimlari, qadimgi shakllarining bugungi kundagi ekvivalenti asosidagi mazmuni izlab topilgan, so'zlar ma'nolariga ko'ra grammatik jihatdan farqlanishi tahlil qilingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Badiiy tarjimaning eng katta qiyinchiliklaridan biri - bu madaniy alomatlarini boshqa tilga o'tkazish. Garchi mazmun yaqin bo'lsa-da, turli madaniyatlarda iboraning hissiy qabul qilinishi farq qilishi mumkin. Tarjimon bunday hollarda matn kontekstini chuqur anglab, mos ohangni saqlab qolishga harakat qilishi lozim. Hissiy rang-baranglikni saqlash masalasi badiiy asarlarda hissiyotlarning aniq ifodalanishi muhim o'rin tutadi. Lirik tarjimalarda she'rning mazmuni saqlangan bo'lsa-da, hissiy va poetik ohang to'liq aks ettirilmagan bo'lishi mumkin. Tarjimon o'z mahorati va ijodkorligini ishga solib, hissiyotlarni to'g'ri aks ettiradigan so'zlarni topishi zarur. Stilistik moslikni ta'minlash qiyinchiliklari yana bir muammo bu stilistik uyg'unlikni

saqlashdir. Masalan Shekspir tragediyalari lirik usulda yozilgan bo'lib, ularni tarjima qilishda albatta yozuvchining uslubini saqlab qolish juda muhim va juda mashaqqatlidir.

Lirik tarjima kompetensiyasini shakllantirishning bir nechta talablariga amal qilinishi lozim. unga ko'ra asliyat va tarjima tillari badiiy matnining sintaktik, leksik-semantik, stilistik, tekstual sathlari xususiyatlari, asliyat va tarjima tillarining badiiy xususiyatlari, badiiy matnining tuzilishiga ko'ra xususiyatlari va uning boshqa soha matnididan ajralib turadigan farqlari, asliyat va tarjima matni sohiblarining madaniyati bo'yicha keng bilimlar majmuyi, badiiy matnning ekstralingvistik – madaniy, kognitiv, konseptual xususiyatlari, badiiy tarjimada qo'llaniladigan tarjima uslublari, badiiy tarjimada qo'llaniladigan tarjima transformatsiyalarini bilishi talab etiladi.

Lirik asarda syujet, kompozitsiya, konflikt, voqealar va albatta muammolar yechim bo'ladi. Tragediyadagi lirik kechinmani o'quvchi qalbidan joy oladigan darajada tarjima qilish mahoratni talab qiladi. Ba'zi so'z va so'z birliklarini asl holicha tarjima qilishning imkoni bo'lmaydi. Bunda asar matnidagi asl ma'noni saqlab qolish mushkul bo'lib qoladi.

NATIJALAR

Ushbu ishning asosiy maqsadi - lirik asarlarning ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girish jarayonida lingvistlar duch keladigan ba'zi muammolarni ilmiy tahlillar natijasida bayon qilish va tarjima sohasining rivojida o'z bo'lsada o'z hissamni qo'shish. Jumladan, so'z qurilishidagi o'zaro qarama-qarshiliklar, mazmunning asl holatini imkon qadar saqlab qolgan holda bayon etish.

Tarjima orqali jahon adabiyoti sarchashmalaridan xalqimizni bahramand etish.

MUHOKAMA

“A Dog of the house of the Mountagues moues me.”

“Montekki hovlisining har bir iti menga tegishib o'tadi”

Agar so'zma-so'z tarjima qilinadigan bo'lsa “Montekkilar hovlisining iti menga biroz jilmayadi” kabi mujmal tarjima kelib chiqishi mumkin edi

“**MOUE**” ning ma'nosi biroz jilmayish, so'kinishdir. O'rta ingliz tili tarixida mavjud bo'lgan, gapda ishlatilgan “**MOUE**” so'zi birorkimning nafratlangan yoki so'kingan ko'rinishini ifodalashda yoki bezovtalik va norozilikni bildirish uchun ishlatiladigan ibora sifatida qo'llanilgan. Zamonaviy ingliz tili adabiyotida ushbu so'zning boshqa ekvevalenti qo'llaniladi. Zamonaviy ingliz tilida **disgust**- jirkanish ma'nosidagi so'z mavjud bo'lib, ot va fe'l vazifasida qo'llana oladi.

“...an houre before the worshipt sunne

Peept through the golden window of the East”

“.. Sharqning oltin derazasidan

Tong chog'ining shu'lalari lipillamasdan”

Agar so'zma-so'z tarjima qilinadigan bo'lsa

“.....yarim soat oldin sajda qilgan quyosh

sharqning oltin derazasidan ko'zdan kechirishidan” kabi nomaqbul tarjima kelib chiqishi mumkin edi.

Sunne so'zining ma'nosi quyosh, oftobdir. O'rta ingliz tili tarixida mavjud bo'lgan, gapda ishlatilgan bu so'zning hozirgi varianti **Sun**.

“No, for if you doo, you should be a Collier”

“Sira ham! Bo'lmasa bizlar ko'mirchi bo'lgan bo'lar edik”

Collier – ko'mir qazuvchi ishchi. Bu yerda ko'mirchi deyishdan maqsad har kim ham masxara qilib turishga sazovor bo'lingan past hunar egalari izohlangan. O'rta ingliz tili tarixida mavjud bo'lgan, gapda ishlatilgan bu so'zning hozirgi varianti **Coal miner**.

“Feather of lead, bright smoke, cold fire, sicke health,

Still waking sleepe, that is not what it is:

This loue feele I, which feele no loue in this.”

“Qo'rg'oshin pat, Ravshan tutun, sovuq alanga

Sog'lom kasal yo uyquda uxlagan bedor,

Sevilmasdan bir sevgiga bo'ldim giriftor”

Misralarida yozuvchining so'z san'ati va o'xshatishlardan chiroyli foydakana olganligini bilish qiyin emas.

“Loue is a smoke raisde with the fume of sighes”

“Muhabbat bu faryodlardan yoyilgan tutun”

Agar so'zma-so'z tarjima qilinsa:

“muhabbat - xo'rsinishning bug'i bilan tutun ko'tarilishidir” kabi mujmallik ko'rish mumkin edi.

“Loue” (sevgi, sevmiq) - eski ingliz so'zi bo'lib zamonaviy ingliz tilida “love” (sevgi, sevmiq) so'zining hozirgi kunda ishlatilmaydigan versiyasidir

“Being purgde, a fire sparkling in louers eyes:”

“Nazarimda ammo o'tday ko'rinar butun”

Agar ushbu bandlar soʻzma-soʻz tarjima qilinganida “sevgining koʻzlarida porlayotgan olovda tozalangan boʻlish” maʼnosi ham biroz ijodkor tasviriga yaqinroq boʻlar edi.

“purgde” (olovda tozalamoq) eski ingliz soʻzi boʻlib zamonaviy ingliz tilida **“to purify by fire”** (olovda tozalamoq) soʻzining hozirgi kunda ishlatilmaydigan versiyasidir. Shekspir ushbu soʻzni “sevgining koʻzlarida porlayotgan olovda toblangan boʻlish” kabi lirik maʼnosida qoʻllagan boʻlsa ajab emas.

“Being vext, a sea raging with a louers teares.”

“Yo koʻz yoshdan jamgʻarilgan motam dengizi”

sevgi koʻz yoshlari bilan gaʻzablangan dengizdek Qoʻzgʻalgan boʻlish

Vext – (bezovta qilmoq, qoʻzgʻatmoq) - eski ingliz soʻzi boʻlib zamonaviy ingliz tilida **“vexed”** (gʻazablangan) soʻzining hozirgi kunda ishlatilmaydigan versiyasidir

Ijodkor tarjima qilar ekan asar davrining oʻziga xos tarixiy manzarasi, oʻsha davr nafasi va ruhiyati va boʻyoqlaridan mutolaa egalarini bahramand etadi.

Sersuhanlik koʻp gapirish hozir rasm emas

Axir bizning yonimizda koʻr Kupidon yoʻq

Kupidon – oʻsha davrning ingliz teatrlarida koʻzi bogʻliq Amur yoki Kupidon (ishq tangrisi) obrazli va figuralardan biri boʻlib niqobda chiqar edi

Tovon bosib toptayversin boʻyra pollarni

Boʻyra- Angliyda gilam rasm boʻlmagan vaqtlarda eng yaxshi uylar hatti saroylarda ham pollarga qamish boʻyrallar yozilar edi.

Bu borada O.V. Petrova shunday deb yozadi: “Tarjimaning muayyan usulini tanlash asosan ibora komponentlari oʻrtasidagi semantik aloqalar, grammatik norma hamda tarjima tilidagi soʻz birikmasini hosil qilish xususiyatlari bilan belgilanadi (Petrova. 2006, 18)”.

XULOSA

Maqolada muhokamaga sabab boʻlgan mavzular lirik matnlarni tarjima qilishning asosiy meʼyorlaridandir. Bu maʼlumotlar haqida yaxshi bilimga ega boʻlish, ularni oʻz oʻrnida mahorat bilan qoʻllay olish imkoniyatini yaratadi va bizning tarjimon boʻlib shakllanishimizda muhim oʻrin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "Til va adabiyot ta'limi" O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali Выпуски 1–4 2008
2. Vilyam Shekspir "Romeo and Juliet" tragedy As it hath been often (with great applause) plaid publicly, by the right Honourable the L. of Hunsdon his Seruants. LONDON, Printed by Iohn Danter. 1597.
3. Maqsud Shayxzoda "Ромео ва Жульетта" танланган асарлар беш жилдликб 1-жилд Тошкент Гофур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти 1981.
4. Hatto A. "Language and Translation in Central Asia." London: Routledge, 2004.
5. Seyfullayev. "Badiiy tarjima nazariyasi." Toshkent: Universitet nashriyoti, 2018. \
6. M. Baker. "In Other Words: A Coursebook on Translation." London: Routledge, 2011.
7. Masharipov. "Lingvistik va madaniy o'ziga xosliklarni tarjima qilish." Tarjima jurnalistikasi, 2020.
8. Вайсгербер Ю. Л. "Язык и народная культура." Москва: Прогресс, 1977.
8. www.Ziyouz.com